ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-noyabr | 398-1-24-Q/24 | Marhamat tumani hokimligi

Marhamat tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi” to‘g‘risidagi O‘RQ-642-son Qonunining 39-moddasi 4-bandi, 2-xat boshi (VM 965-sonli qarorining 2-ilovasiga muvofiq), “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlari Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №3163-son 2019-yil 31-may) buyrug‘iga asosan “ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni kvotalangan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash”ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun, asosan tumanda 2024-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin. Nogironlar uchun 3 foiz (109) nafar yuqorida

koʻrsatilgan ish oʻrinlariga tumanda nogironlarni ishga joylashish boʻyicha talab 109 nafar boʻlmasa kelgusida ish oʻrinlari qolgan toifalar uchun band qilib qoʻyilsin;

2-ilovaga muvofiq xodimlarning roʻyxati boʻyicha oʻrtacha sonidan 3590 nafarini tashkil etadigan 7 foizdan ortmagan miqdorida, shu jumladan:

- yolgʻiz ota, yolgʻiz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor koʻp bolali ota-onalaruchun 1,1 foiz (22 kishi);

- umumiy oʻrta oʻrta -maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining davlatgrantlari boʻyicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 2 foiz (36 kishi);

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni oʻtagan va OʻzbekistonRespublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun 0.1 foiz (4 kishi);

- nogironligi boʻlgan shaxslar uchun 0,3 foiz (109 nafar nogironlaruchun band qilingan ish oʻrinlarining ortgan qismi kelgusida ehtiyoj yuqori toifalar bilan toʻldiriladi);

- Pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar shaxslar uchun 0,1 foiz (3 kishi);

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun 0,3 foiz (6 kishi);

- oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 0,3 foiz (7 kishi);

- atrofdagilar uchun xavfli boʻlmagan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar bilan ogʻriyotgan shaxslar uchun 0,2 foiz (4 kishi);

- odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar 0,1 foiz (2 kishi) miqdoridaish oʻrinlari zaxirasini belgilaydi.

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish oʻrinlari xodimlar tomonidan oʻzlarining mehnat majburiyatlarini toʻsiqlarsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq boʻlishi kerak, shu jumladan:

- yolgʻiz ota, yolgʻiz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor koʻp bolali ota-onalar bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari boʻyicha vazifalarni uygʻunlashtirish imkonini beradigan, oʻzgaruvchan ish jadvaliga ega boʻlgan ish oʻrinlari;

- umumiy oʻrta oʻrta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining davlatgrantlari boʻyicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun ularning kasb boʻyicha tayyorgarligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari;

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekistonRespublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘ligining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

- tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limida ishqidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari; jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlar uchun ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

3. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

- muhandislar, iqtisodchilar, pedagok, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, farrosh, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, bog‘bon, qorovul.

4. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

- O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi” to‘g‘risidagi qonuni O‘RQ-642-son 39-moddasi 4-bandi 2-xat boshi. (VM 965-sonli qarorining 2-ilovasiga muvofiq).

- “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin;

- yil boshlanguniga qadar o‘n kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasin, ushbu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga yil boshlanguniga qadar axborot bersin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu to‘g‘rida tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tugagandan keyin o‘n kundan kechikmay axborot bersin;

- tashkilotlar har chorakda tuman Kambag‘allikni qisqartirish vabandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yuqorida ko‘rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to‘g‘risida ushbu nizomdagi 2-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin;

- band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining tayyorligi to‘g‘risidagi axborotni tashkilot tomonidan taqdim etilmaganligiga ham va amalda ularning tayyor emasligiga ham mehnat organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organi qarorining bajarilmaganligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin.

5. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq Mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat qo‘shimcha kafolatlarni ta’minlaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini yaratishga doir qarorlarini bajarmaslik MJtKning 50-moddasi bilan mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha ishga qabul qilgan fuqarolar uchun tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiya va grantlar ajratilish aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligini umumiy bo‘limi (M.Raximov) bir haftamuddatda ushbu qarorni 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur tuman hokimining qarori 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiritilsin.

9. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 7-dekabrdagi 153-1-24-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi tomonidan har oy tuman hokimining mazkur qarori ijrosini bajarmasdan kelayotgan tashkilotlar bo‘yicha axborot kiritib borsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i O.Arslonov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O‘.Mamurov**

Marhamat tuman hokimining
2024-yil 15-noyabrdagi
398-1-24-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Marhamat tuman 2025-yil davomida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan ish o‘rinlarining

T A Q S I M O T I

№	Topshiriq berilgan korxona, tashkilot va muassasa nomi	Tashkilotning STIR raqami	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni *		Shundan																	
						...ama va nogiron bolal...		...yoshlar, shuningdek...		...ublikasi Qurolli		Nogironlar **			...ga yaqinlashib qolga...		...otgan yoki sud qarori		...vonlik natijasida		...agan ijtimoiy ahamiyatli ...jabrlanga...		
				Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	Hozirda ishlovchilar soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Marhamat tumani bo‘yicha jami:		**32**	**3590**	**193**	***5,4***	**22**	***1,1***	**36**	2	**4**	0,1	**109**	**19**	***3,0***	**3**	0,1	**6**	0,3	**7**	0,3	**4**	0,2	**2**	0,1
1	Marhamat tuman Tibbiyot birlashmasi	200286454	1920	**96**	***5,0***	**5**		**10**		**3**		**58**	**6**	***3,0***	**2**		**6**		6		4		2	
2	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi Andijon viloyat boshqarmasining Marhamat tuman bo‘limi	200286493	78	**4**	***5,6***	**1**		**1**				**2**	**4**	***3,0***										
3	3-umumta′lim maktabi	206882484	40	**2**	***5,5***			**1**				**1**	**2**	***3,0***										
4	72-IDUM	203322010	113	**7**	***6,5***	**2**		**2**				**3**	**0**	***3,0***										

5	10-umumta'lim maktabi	203322027	124	**7**	***5,4***	**1**		**2**				**4**	**0**	***3,0***										
6	11-umumta'lim maktabi	206882491	42	**2**	***5,4***	**1**						**1**	**1**	***3,0***										
7	14-umumta'lim maktabi	203322059	82	**5**	***6,7***	**1**		**1**				**2**	**2**	***3,0***	**1**									
8	15-umumta'lim maktabi	206882509	34	**2**	***5,9***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
9	20-umumta'lim maktabi	203089815	86	**6**	***7,0***	**1**		**2**				**3**	**1**	***3,5***										
10	28-umumta'lim maktabi	203322160	59	**4**	***6,8***	**1**		**1**				**2**	**1**	***3,4***										
11	35-umumta'lim maktabi	206882531	46	**3**	***7,3***	**1**		**1**				**1**	**0**	***3,0***										
12	37-umumta'lim maktabi	206879953	41	**2**	***5,4***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
13	43-umumta'lim maktabi	203322249	72	**4**	***5,8***	**1**		**1**				**2**	**0**	***3,0***										
14	1-maktabgacha ta'lim tashkiloti	206961092	51	**3**	***5,0***			**1**				**2**	**0**	***3,0***										
15	3-maktabgacha ta'lim tashkiloti	305222534	37	**2**	***5,7***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
16	6-maktabgacha ta'lim tashkiloti	305601244	48	**2**	***5,1***	**1**						**1**	**0**	***3,0***										
17	8-maktabgacha ta'lim tashkiloti	206961117	35	**2**	***5,9***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
18	9-maktabgacha ta'lim tashkiloti	206961124	34	**2**	***5,9***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
19	13-maktabgacha ta'lim tashkiloti	305537205	40	**2**	***5,5***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
20	16-maktabgacha ta'lim muassasasi	206961267	40	**2**	***5,5***					**1**		**1**	**1**	***3,0***										
21	20-maktabgacha ta'lim muassasasi	207070330	41	**2**	***5,4***	**1**						**1**	**0**	***3,0***										
22	21-maktabgacha ta'lim muassasasi	207018875	38	**2**	***5,6***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										

23	22-maktabgacha ta'lim muassasasi	206966244	34	**2**	***5,9***			**1**				**1**	**0**	***3,0***										
24	24-maktabgacha ta'lim muassasasi	206960964	44	**2**	***5,3***			1				**1**	**0**	***3,0***										
25	25-maktabgacha ta'lim muassasasi	305779030	40	**2**	***5,5***	1						**1**	**0**	***3,0***										
26	26-maktabgacha ta'lim muassasasi	206961909	34	**2**	***5,9***			1				**1**	**0**	***3,0***										
27	28-maktabgacha ta'lim muassasasi	305611059	34	**2**	***5,9***			1				**1**	**0**	***3,0***										
28	29-maktabgacha ta'lim muassasasi	207308142	36	**2**	***5,8***	1						**1**	**0**	***3,0***										
29	Marxamat tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi	200286747	55	**3**	***4,8***	1						**2**	**0**	***3,0***										
30	2-son kasb-xunar maktabi	203701060	92	**6**	***6,5***	1		1				**3**	**1**	***3,3***					1					
31	1-son kasb-xunar maktabi	201397670	84	**4**	***4,2***			1				**3**	**0**	***3,0***										
32	30-maktabgacha ta'lim muassasasi	308005152	36	**2**	***5,8***	1						**1**	**0**	***3,0***										